

Alijonov Utkirbek Maxamadaliyevich,
*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi
boshqarma boshlig'i, PhD*



Satvaldiyev Raximjon Xasanovich,
*O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasi
bo'lim boshlig'i*



AHOLINING KEKSAYISH DARAJASINI XALQARO INDEKSLAR BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining keksayish darajasi, keksayish jarayonlari, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, keksayish jarayonlarini baholovchi metrikalar, qarish indeksi, qarish jarayoni, qarish sabablari, keksa guruhlar va kelajakdagi keksa odamlar ahvolidagi keksa odamlar keksayish ko'rsatkichlari, faol uzoq umr ko'rish indeksi ko'rsatkichlari batafsil tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются скорость старения населения, процессы старения, рождаемость и смертность, показатели оценки процессов старения, индекс старения, процесс старения, причины старения, показатели состояния пожилых групп и будущих пожилых людей, показатели активной индекс долголетия.

Annotation. This article analyzes in detail the rate of population aging, aging processes, birth and death rates, metrics for evaluating aging processes, aging index, aging process, causes of aging, indicators of the condition of elderly groups and future elderly people, indicators of active longevity index.

Tayanch soʻzlar: *keksayish, tugʻilish, oʻlim, qarish, qarish chuqurligi, keksa aholi, istiqbolli yosh, uzoq umr, indeks.*

Ключевые слова: *старение, рождение, смерть, глубина старения, пожилое население, предполагаемый возраст, долголетие, индекс.*

Keywords: *aging, birth, death, depth of aging, elderly population, prospective age, longevity, index.*

Kirish. Har bir davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida demografik holati muhim rol oʻynaydi. Ushbu demografik holatlarining orasida, ayniqsa, **aholining keksayish** jarayoni jamiyatga jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda va hukumatlardan koʻproq eʼtibor talab qilmoqda.

Fanda keksalik, uning dastlabki koʻrinishlari, keksalik yoshi va uning chegaralari kabi masalalar atrofida bahs-munozaralar anchadan beri olib boriladi, lekin soʻnggi yillardagina bu masalalar **iqtisodiyot, demografiya, sotsiologiya, gerontologiya** kabi fanlarning jiddiy tadqiqot obyektiga aylandi. Chunki aholining keksayish jarayoni bilan bir vaqtda keksa kishilarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xarakteristikasida tub oʻzgarishlar roʻy beradi. Bu oʻzgarishlarning silliqroq kechishi nafaqat sogʻliqni saqlash tizimiga, balki jamiyatning boshqa tuzilmalariga – iqtisodiyot, ishlab chiqarish, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy taʼminot, oila va boshqalarga ham bogʻliqdir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan koʻplab mamlakatlarda aholi tarkibida keksa odamlarning ulushi tez surʼatlar bilan oʻsib bormoqda. Aholining keksayishi hozirgi davrda zamonaviy demografik hodisa boʻlib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha boʻlsa-da, barcha mamlakatlar uchun xosdir.

Aholi qarishining mohiyati shundan iboratki, tabiiy harakatdagi oʻzgarishlar (**tugʻilish** va **oʻlim** koʻrsatkichlari) taʼsirida aholining tarkibida keksa odamlarning ulushi va soni ortishi, yoshlar ulushining kamayishi hamda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushining qisqarishi hisobiga sodir boʻladigan jarayondir.

Asosiy qism. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, 2020-yilda 65 yoshdan oshgan dunyo aholisining ulushi 9,32 foizni tashkil etgan va 2010-yildan boshlab dunyo aholisining qarish jarayoni keskin tezlashgan¹. BMT maʼlumotlariga koʻra, 2050-yilga borib 5 yoshgacha boʻlgan har bir bolaga 65 yoshdan oshgan ikkita keksa toʻgʻri kela boshlar ekan².


¹ https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.65UP.TO.ZS?end=2020&most_recent_value_desc=true&start=1960&view=chart&year=2020

² <https://ru.sputnik.kg/20190421/na-zemle-detej-stanovitsya-menshe-chem-starikov-cto-proiskhodit-1044041462.html>


XXI asr dunyosining demografik qarish tendensiyalari nafaqat 60/65+ yoshidagi odamlarning yuqori darajasi haqida, balki eng qadimgi yosh guruhlarining juda tez qarishi haqida dalolat bermoqda. Shunday qilib, agar dunyo aholisining soni har yili 1,2% ga oshsa, 65+ yoshidagi aholi ikki barobar tezroq – 2,8 % ga o'smoqda, shu bilan birga, 100+ yoshdagi aholi umumiy aholi sonining 4 barobaridan ko'prog'i – 9,4% bilan yillik o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Dunyo bo'ylab keksa yoshdagi odamlarning aksariyatini ayollar tashkil etadi. Bugungi kunda dunyodagi 60 yoshdan oshgan har 100 ayolga atigi 84 erkak to'g'ri keladi. 80 yoshdan oshgan har 100 ayolga 61 erkak to'g'ri kelmoqda.

Dunyo miqyosida dunyo aholisining qariyb 26 foizini 15 yoshgacha bo'lgan yoshlar va to'qqiz foizini 65 yoshdan oshganlar tashkil qiladi. Yevropada bu farq ancha yaqin, aholining 16 foizini 15 yoshgacha, 19 foizini esa 65 yoshdan oshganlar tashkil qiladi. Yaqin Sharq va Sahroyi Kabirdagi Afrika kabi bir nechta davlatlar bundan mustasno, ko'plab mintaqalarda aholi o'sish sur'atlari sezilarli darajada pasaygan. Janubiy Sudan va Angolada aholining eng yuqori o'sish sur'atlari mavjud bo'lib, ular mos ravishda 3,83 va 3,52 foizni tashkil etadi. O'sish sur'atlari yuqori bo'lgan ayollar o'rtacha besh yoki undan ortiq bola tug'adigan bunday mamlakatlarda tug'ilish darajasi yuqori bo'lishi mumkin. Biroq dunyo aholisining, taxminan, 50 foizi tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda yashaydi, bu yerda ayollar 2,1 dan kam bola tug'adi.

Yevropaning Latviya va Litva kabi mamlakatlarida 2017-yilda aholi soni 1,08 foizga qisqardi. Yevropada aholining asosiy qismi avvallari mehnatga layoqatli, qaramog'ida odam soni kam bo'lgan shaxslar hisoblangan, biroq bu tendensiya tez orada o'zgarishi kutilmoqda va 2050-yilga borib ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keksa aholi soni yoshlardan ko'p bo'lishi kutilmoqda.



2020-yilda dunyo bo‘ylab 147 milliondan ortiq kishi 80–99 yosh oralig‘ida bo‘lib, bu dunyo aholisining 1,9 foizini tashkil qiladi. Garchi bu foiz unchalik katta bo‘lmasa-da, 1950-yilda ushbu demografik ma’lumotlar aholining atigi 0,05 foizini tashkil etgan, ya’ni bizning dunyomizda 70 yil oldingiga qaraganda keksa odamlarning foizi sezilarli darajada yuqori³.



Keksa avlod vakili turli xil guruhga mansub bo‘lib, unga bir xil yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Ularning boshqa toifa guruhdagilar singari xilma-xilligini, yoshi, jinsi, millati, ma’lumot darajasi, daromadi va sog‘lig‘i holati jihatidan tan olinishi muhimdir. Keksa yoshdagi har bir toifaning o‘ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlari bor, ular maxsus tanlangan dasturlar hamda tadbirlar orqali qondirilishi kerak⁴.

Shuningdek, aholining keksayish jarayoni bilan bir vaqtda keksa kishilarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xarakteristikasida tub o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlarning yaxshiroq kechishi nafaqat sog‘liqni saqlash tizimiga, balki jamiyatning boshqa tuzilmalariga – iqtisodiyot, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, oila va boshqalarga ham bog‘liqdir. Shu bois hozirgi kunga kelib aholining keksayish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha jumladan, **keksayish jarayonlarini o‘lchash va ularni baholash** bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

³ <https://ourworldindata.org/age-structure>

⁴ Ageing in the twenty-first century: a celebration and a challenge. NY: UNFPA, 2012. – 192 p.

Demografik **keksayish jarayonlarini** o'lchashning metodologik asoslari uchun uning tarkibidagi qariyalarning ulushiga qarab aholining qarilik darajasini tasniflash muhim rol o'ynaydi. O'z vaqtida, Shvetsiyalik demograf olim **A.G.Sundberg** XIX asrning oxiriga kelib **ilg'or, statsionar** va **regressiv** yosh tuzilishi turlarini ilmiy muomalaga kiritgan⁵.

Tarixiy jihatdan demografik qarishni o'lchashning birinchi usuli polshalik – aholi qarilik davrining tasnifi demograf **E.Rosset** tomonidan taklif qilingan. Edvard Rosset tasnifiga ko'ra, qarilik ostonasi sifatida 60 yosh qabul qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining demografiya mutaxassislari qarish jarayonlarini o'lchash chegarasi sifatida 65 yoshni tanladilar va aholining demografik tuzilishini tavsiflovchi uchta darajani taklif qildilar⁶:

- 65 yoshdan oshganlarning 4 foizi – yosh aholi;
- 4 dan 7% gacha – yetuk aholi tarkibi;
- 7% dan ortiq – keksa aholi.

O'z navbatida, aholining qarish koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_x = \frac{S_{x+}}{S} \times 100,$$

- x – keksalik boshlanishining yoshi yoki chegarasi;
- S_{x+} – x yosh va undan katta yoshdagi shaxslar soni;
- S – umumiy aholi soni.

BMT metodologiyasi demografik qarish hodisasini global miqyosda o'rganish uchun mos bo'lsa, Rosset metodologiyasi esa, bizning fikrimizcha, ushbu jarayonni mintaqaviy darajada chuqurroq o'rganishga mos keladi. Uzoq umr ko'rish darajasini miqdoriy baholash uchun ma'lum bir yoshga yetish imkoniyatini aks ettiruvchi va amalda aholining yosh tarkibiga bog'liq bo'lmagan uzoq umr ko'rish koeffitsiyenti qo'llanadi.

Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$K_d = \frac{S_{80+}}{S_{60+}} \times 100,$$

- S_{80+} – 80 va undan katta yoshdagilar soni;
- S_{60+} – 60 va undan katta yoshdagilar soni.


Odatda **aholining keksayish jarayonlari** fiskal va ijtimoiy rejalashtirishni xabardor qilish uchun o'lchanadi, chunki u keksa aholi

Demografik keksayish jarayonlarini o'lchashning metodologik asoslari uchun uning tarkibidagi qariyalarning ulushiga qarab aholining qarilik darajasini tasniflash muhim rol o'ynaydi. O'z vaqtida, Shvetsiyalik demograf olim A.G.Sundberg XIX asrning oxiriga kelib ilg'or, statsionar va regressiv yosh tuzilishi turlarini ilmiy muomalaga kiritgan.

⁵ Практическая демография: учеб. пособие для вузов / под ред. Л. Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2005. – 280 с.

⁶ Доклад ООН о развитии в условиях старения населения мира. – 2007. – Режим доступа: <https://www.un.org/ru/development/surveys/docs/wess2007.pdf>

jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlik va sogʻliqni saqlash tizimlariga yuklayotgan yukni koʻrsatadi.



1-rasm. Keksayish jarayonlarini baholovchi metrikalar

Keksayish jarayonlari quyidagi metrikalar bilan oʻlchanadi:

- aholi qarishining xronologik-yosh koʻrsatkichlari;
- aholi qarishining iqtisodiy koʻrsatkichlari;
- aholi qarishining jismoniy-salomatlik koʻrsatkichlari;
- aholi qarishining funksional koʻrsatkichlari;
- biomarkerlar aholi qarishining kelajakdagi potensial koʻrsatkichlari sifatida;
- aholi qarishining subyektiv koʻrsatkichlari.

Aholi qarishining xronologik-yosh koʻrsatkichlari, oʻz navbatida, joriy xronologik-yoshga asoslangan koʻrsatkichlar tuzilishi va davriy hayot jadvallari asosidagi koʻrsatkichlariga boʻlinadi. Aholi qarishining funksional koʻrsatkichlari ham, oʻz navbatida, kognitiv faoliyat, sensorning ishlashi va funksional quvvat kabi kichik koʻrsatkichlarga boʻlinadi.

Bundan tashqari, barqaror rivojlanish sharoitida aholining qarishi koʻrsatkichlari tizimi yuritiladi va ushbu koʻrsatkichlar 4 ta guruhdan iborat:

- qarish jarayonining koʻrsatkichlari;
- qarish sabablarining koʻrsatkichlari;
- qarishning iqtisodiyot uchun oqibatlari koʻrsatkichlari;
- qariyalarning mavqeyi va boʻlajak qariyalar pozitsiyasining koʻrsatkichlari (1-jadval).

1-jadval

Barqaror rivojlanish sharoitida aholining qarishi ko'rsatkichlari tizimi: jarayon ko'rsatkichlari, sabablar ko'rsatkichlari, iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlari, keksalar va kelajakdagi keksalarning ahvoli ko'rsatkichlari

№	Qarish jarayonining ko'rsatkichlari	Qarish sabablarining ko'rsatkichlari	Iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlari	Keksa guruhlar va kelajakdagi keksa odamlarning ahvoli ko'rsatkichlari
1	Mamlakat aholisi tarkibidagi keksalarning ulushi	Katta yoshdagi umr ko'rish davomiyligi	Umumiy demografik bosim koeffitsiyenti	Qarish bo'yicha global kuzatuv indeksi
2	Qarish indeksi	Katta yoshda omon qolish darajasi	Yoshlar (bolalar) va qariyalar uchun bosim koeffitsiyentlari	Faol uzoq umr ko'rish indeksi Yevropa mamlakatlar uchun
3	Qarish chuqurligi indeksi	Tug'ilganlar soni	Potensial qo'llab-quvvatlash nisbati	Qariyalar yashaydigan uy xo'jaligi turi
4	Keksa aholida jinsiy nisbat	Umumiy tug'ilish darajasi	Ota-onalarni qo'llab-quvvatlash darajasi	Keksalariga do'stona munosabatda bo'lgan shaharlar uchun ko'rsatkichlar
5	Jami aholi, qariyalar va juda keksalarning o'sish sur'atlari	Emigrantlar va immigrantrlarning yosh tarkibi ko'rsatkichlari	Keksa demografik yukning istiqbolli omili	Yoshlar holati ko'rsatkichlari (yoshlar ta'limi; yoshlar bandligi va ishsizlik; daromadga nisbatan uy-joy sotib olish imkoniyati; yoshlar salomatligi)
6	Aholining o'rtacha yoshi		Qo'llab-quvvatlash nisbati	40–59 yoshdagi aholining ahvoli ko'rsatkichlari (ta'lim tizimida ishlagan yillar soni; sog'liqni saqlash; moliyaviy ahvol)
7	Mehnatga layoqatli aholi tarkibida keksa mehnatga layoqatli yoshdagi kishilarning ulushi		Birinchi demografik dividend	
8	Istiqbolli yosh		Ikkinchi demografik dividend	
9	Kelajakdagi yoshni hisobga olgan holda qariyalarning ulushi		Keksalarning bolalarga g'amxo'rlik qilishdagi hissasi	

XX asrning oxirgi uchdan birida demografik qarishni baholashning klassik yondashuvi shakllangan bo'lib, u qarish jarayonining ko'rsatkichlari (turli yoshdagi keksa aholi guruhlari soni va nisbati), qarish sabablari, qarishning iqtisodiyotga ta'siri (qaramlik koeffitsiyentlari), hamda keksa aholi guruhlari holati (iqtisodiy faollik va savodxonlik)dan iborat.

Mamlakat aholisi tarkibidagi keksalarning ulushi – aholining umumiy sonida keksalar va qariyalar ulushining ortishi tushuniladi.

Qarish indeksi – 100 bolaga to'g'ri keladigan qariyalar soni. U mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar soni yoki ulushining bolalar soni yoki ulushiga (0–14 yosh guruhi) nisbati sifatida hisoblanadi va 100 ga ko'paytiriladi.

Qarish chuqurligi indeksi – bu butun keksa aholi orasida keksa yoshdagi aholining ulushini aks ettiradi.

Keksa aholida jinsiy nisbat – bu har 100 qari ayolga to'g'ri keladigan qari erkaklar soni. Bunda jami qari erkalarining jami qari ayollarga nisbati sifatida hisoblanadi va 100 ga ko'paytiriladi.

Istiqbolli yosh – bu aholi o'rtacha 15 yildan ortiq yashamasligi kerak bo'lgan yosh. Ushbu yondashuv bilan demografik qarish prognozi butunlay o'zgaradi.

Kelajakdagi yoshni hisobga olgan holda qariyalarning ulushi – 20 yoshgacha bo'lgan 100 kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 15 yoshdan oshmaydigan (bo'lajak yosh) odamlar soni.

Katta yoshdagi umr ko'rish davomiyligi – kelajakda barcha katta yoshdagi aholining o'lim ko'rsatkichlari ko'rib chiqilayotgan yil bilan bir xil bo'lib qoladi, degan faraz asosida o'rtacha umr ko'rish davomiyligining qiymati.

Katta yoshda omon qolish darajasi – qarilik yoshiga qadar omon qolgan yoshdagi aholining ulushi, shu bilan birga, bu yoshga to'lgan odamlarning keyingi yoshga qadar omon qolish ehtimolining o'ziga xos xususiyati.

XX asrning oxirgi uchdan birida demografik qarishni baholashning klassik yondashuvi shakllangan bo'lib, u qarish jarayonining ko'rsatkichlari (turli yoshdagi keksa aholi guruhlari soni va nisbati), qarish sabablari, qarishning iqtisodiyotga ta'siri (qaramlik koeffitsiyentlari), hamda keksa aholi guruhlari holati (iqtisodiy faollik va savodxonlik) dan iborat.

Ushbu ko'rsatkichlar guruhi BMTning dunyo aholisining qarishi va hozirgi paytdagi hisobotlarida qo'llanadi.

XXI asrning boshlarida tadqiqotchilar demografik jarayonlarni yanada aniqroq aks ettirishga imkon beruvchi qo'shimcha ko'rsatkichlar to'plamini taklif qilishdi. Shunday qilib, aholining keksayish jarayoni va uning iqtisodiyotga ta'siri istiqbolli yoshni baholash orqali tahlil qilishni taklif qildi. Ushbu yondashuvga ko'ra, keksalik chegarasi qoldiq hayot davomiyligi ko'rsatkichi bo'yicha o'lim jadvallari yordamida amalga oshiriladi.

2012-yilda Madrid xalqaro harakat rejasining 10 yilligi munosabati

bilan Yevropa Kengashi e'lon qilingan faol qarish va avlodlar o'rtasidagi hamjihatlik siyosati doirasida Faol qarish indeksini (**AAI – Active Aging Index**) hisoblashni taklif qildi.

Hozirgi kunga kelib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat hukumatlari nafaqat katta yoshdagilarning ulushi, balki umumiy aholi sonining ko'payishi tufayli **pensiya siyosatini** ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida qariyalarning qashshoqlik xavfini kamaytirishga e'tiborlarini qaratishmoqda⁷.

Ushbu muammoni hal qilish uchun Yevropa davlatlari **faol uzoq umr ko'rish strategiyasini** ishlab chiqmoqdalar, ushbu strategiya qarishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish va qarish muammolarini hal qilishda yanada ijobiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, mazkur strategiyalar keksa yoshdagi odamlarning potensialini maksimal darajada oshirish, ularning oila va hukumatga qaramligini kamaytirish orqali ular uchun imkoniyatlarga boy muhit yaratishga qaratilgan. **Faol uzoq umr ko'rish** (активное долголетие) – bu keksa yoshdagi insonning ijtimoiy, iqtisodiy, jismoniy va psixologik farovonlik holati, keksa yoshdagi fuqarolarga o'zlarining ehtiyojlarini qondirish hamda jamiyatning turli sohalariga faol ishtirokini ta'minlash maqsadida yaratilgan imkoniyatlar majmuasi. **Faol uzoq umr ko'rish** bir qator siyosiy sohalarga ta'sir qiladi: ish bilan ta'minlash, ijtimoiy jalb qilishni rag'batlantirish, qashshoqlik darajasini pasaytirish, salomatlikni yaxshilash, farovonlik darajasini oshirish va boshqalar. Bunday siyosat yo'nalishlari odatda o'ziga xos maqsadlarni ko'zlagan bo'lsa-da, ular qariyalar hayotining barcha jihatlariga ta'sir qiladigan yagona global yondashuvda birlashtirilishi kerak. Shu bois Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida demografik qarish sohasida yangi yondashuvni amalga oshirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining **“Faol uzoq umr ko'rish indekslari”** (IAS) loyihasi 2010-yilda ishga tushdi.

Ushbu **“Faol uzoq umr ko'rish indekslari”**ga quyidagilar kiradi:

- **Faol uzoq umr ko'rish indeksi** (Active Ageing Index);
- **Qarish bo'yicha global kuzatuv indeksi** (Global AgeWatch Index);
- **Global pensiya indeksi** (Index Global Retirement Index);
- **Qariyalar farovonligi indeksi** (Wellbeing in Later Life Index, WILL);
- **SCL / PRB Keksa odamlarning farovonligi ko'rsatkichi.**

Ushbu loyihaning asosiy xalqaro Qonunchilik bazasi qarish sohasidagi **Madrid harakatlar rejasi** va qarish bo'yicha vazirlarning

Hozirgi kunga kelib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat hukumatlari nafaqat katta yoshdagilarning ulushi, balki umumiy aholi sonining ko'payishi tufayli pensiya siyosatini ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida qariyalarning qashshoqlik xavfini kamaytirishga e'tiborlarini qaratishmoqda.

⁷ Active Ageing Index. NY: UNECE Statistics Wikis. Mode of access: <http://www1.unece.org/stat/platform/display/AAI/Active+Ageing+Index+Home> Date of access: 25.05.2016.

Vena deklaratsiyasi hisoblanadi.

“**Faol uzoq umr ko‘rish indeksi**” loyihasining maqsadi turli siyosiy choralar va dasturlarni amalga oshirish, keksa odamlarning jamiyat hayotiga hissa qo‘shishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga yordam beradigan sohalarni aniqlashdan iborat.

Loyihada asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan faol qarishning integral indeksi keksa yoshdagi odamlarning salohiyatidan qay darajada foydalanilayotganini va ular iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatini qanchalik darajada egallashini, shuningdek, mustaqil turmush tarzini boshqarishni ko‘rsatadi. Har bir mamlakat uchun natija 0 dan 100 balgacha o‘zgarib turadigan tarzda qurilgan. Bu har qanday mamlakat (hududlar) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past va yuqori darajasi bilan reytingga kiritilishi uchun amalga oshiriladi.

Indeks 4 mezonga asoslanadi: 1) bandlik; 2) jamiyat hayotida ishtirok etish; 3) mustaqil, sog‘lom va xavfsiz hayot; 4) faol qarish uchun imkoniyatlar va qulay muhit. Birinchi uchta mezon yutuqlarni (natijalarni) o‘lchaydi, to‘rtinchisi – faol qarish bilan bog‘liq ijobiy natijalarga erishish uchun dastlabki shartlar. To‘rt mezon erkaklar va ayollar uchun alohida hisoblangan 22 ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi (2-jadval).

2-jadval

Faol uzoq umr ko‘rish indeksi ko‘rsatkichlari

No	Mezon	Ko‘rsatkichlar
	1. Bandlik	1.1.55–59 yoshdagi aholi o‘rtasida bandlik darajasi.
	1.1.60–64 yoshdagi aholi o‘rtasida bandlik darajasi.	
	1.2.65–69 yoshdagi aholi o‘rtasida bandlik darajasi.	
	1.3.70–74 yoshdagi aholi o‘rtasida bandlik darajasi.	
	2. Jamiyat hayotida ishtirok etish	2.4. Ko‘ngillilar: tashkilotlar tarkibida bepul ixtiyoriy ish bilan shug‘ullanadigan keksa yoshdagi odamlar (55 yoshdan katta).
	2.1. Bolalar, nabiralar uchun g‘amxo‘rlik: o‘z farzandlari va nabiralariga g‘amxo‘rlik qilayotgan keksa yoshdagi odamlar (55 yoshdan katta) (haftasiga kamida bir marta).	
	2.2. Qariyalarga g‘amxo‘rlik: qariyalar ulushi (55+) keksa yoki nogiron qarindoshlariga g‘amxo‘rlik qilish (kamida haftasiga bir marta).	
	2.3. Siyosiy ishtirok: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, siyosiy tashabbuskor guruhlar faoliyati yoki yig‘ilishlarida qatnashadigan keksa yoshdagi (55 yoshdan katta) ulush.	

3. Mustaqil, sogʻlom va xavfsiz hayot 3.1. Sogʻliqni saqlash va stomatologik xizmatlardan foydalanish: 55 yoshdan oshganlarning tibbiy yoki stomatologik tekshiruvdan oʻtishi yoki davolanishi zarur boʻlganida, bu ehtiyoj qondirilmagani haqida xabar berganlarning ulushi. 3.2. Mustaqil/mustaqil yashash: yolgʻiz yoki sherik bilan yashaydigan 75 yoshdan oshgan kishilarning ulushi (qaramogʻidagi bolasiz ikki kattalar). 3.3. Nisbatan oʻrtacha daromad: 65 yoshgacha boʻlgan aholining oʻrtacha ekvivalent daromadining 65 yoshgacha boʻlgan aholining oʻrtacha ekvivalent daromadiga nisbati. 3.4. Kambagʻallik xavfi yoʻq: qashshoqlik xavfi boʻlmagan 65 yoshdan oshgan keksa odamlarning ulushi (kambagʻallik chegarasi milliy oʻrtacha ekvivalent daromadning 50% i sifatida qabul qilinadi). 3.5. Jiddiy moddiy yetishmovchilik (ishonchsizlik) yetishmasligi: ogʻir moddiy yetishmovchilik sharoitida yashamaydigan 65 yoshdan oshgan keksa odamlarning ulushi. 3.6. Jismoniy xavfsizlik: 55 yoshdan oshgan, qorongʻilikdan keyin oʻz mahallasida koʻchada yolgʻiz qolishni his qiladigan odamlarning ulushi. 3.7. Hayotiy taʼlim: 55 dan 74 yoshgacha boʻlgan taʼlim yoki taʼlim olganlarning ulushi.	3.8. Jismoniy faollik: deyarli har kuni 55 yoshdan oshgan yoki jismoniy mashqlar bilan shugʻullanadigan odamlar nisbati.
4. Faol qarish uchun imkoniyatlar va qulay muhit 4.2. 55 yoshida umr koʻrish davomiyligida sogʻlom turmush yillarining ulushi. 4.3. 55 yoshdan oshgan odamlar orasida psixologik farovonlik. 4.4. 55 dan 74 yoshgacha boʻlgan odamlar oʻrtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) kamida haftasiga bir marta (shu jumladan, har kuni) foydalanish. 4.5. Ijtimoiy aloqalar: haftasiga kamida bir marta doʻstlari, oila aʼzolari yoki hamkasblari bilan (norasmiy/ishdan tashqari) uchrashadigan 55 yoshdan oshganlarning ulushi. 4.6. Taʼlim darajasi: oʻrta taʼlimning ikkinchi bosqichini tugatgan yoki oliy maʼlumotni tugatgan 55 yoshdan 74 yoshgacha boʻlgan keksa odamlarning ulushi;	4.1. 55 yilligida umr koʻrish davomiyligi 50 yilga teng boʻlgan maqsadli qiymatning ulushi sifatida.

Rossiya Federatsiyasi “Faol uzoq umr ko‘rish indeksi”ni 2034-yilgacha Rossiya Federatsiyasida keksa avlod fuqarolarining faol uzoq umr ko‘rish konsepsiyasi loyihasida ko‘rsatilgan maqsad va natijalarga erishishni nazorat qilish vositasi sifatida ishlatish rejalashtirilgan.

Indeks nomi, hisobot yili	Indeks shakllanadigan ko‘rsatkichlar / mamlakatlar soni	Rossiya Federatsiyasidagi indeks qiymati, %	Rossiya Federatsiyasining boshqa mamlakatlar orasida indeksdagi o‘rni.
Faol uzoq umr ko‘rish indeksi (Active Ageing Index); 2018	22/29	31,7	23
Qarish bo‘yicha global kuzatuv indeksi (Global AgeWatch Index) 2015	13/96	41,8	65
Global pensiya indeksi (Index Global Retirement Index); 2018	18/43	46,0	38
Qariyalar farovonligi indeksi (Wellbeing in Later Life Index, WILL); 2017	40/ faqat Buyuk Britaniya	-	-
SCL/PRB Keks odamlarning farovonligi ko‘rsatkichi ; 2011	12/12 (AQSH + Yevropa Ittifoqining 11 mamlakati)	-	-

2015-yilda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti yoshga mos shaharlar uchun asosiy ko‘rsatkichlarni taklif qildi: tenglik; yurish, sayohat, uy-joy va dam olish uchun jismoniy muhitning mavjudligi; ijtimoiy hayotga qo‘shilish (jamiyatda keksalarga ijobiy munosabat, ko‘ngilli mehnat, haq to‘lanadigan ish, axborot, ijtimoiy va sog‘liqni saqlash xizmatlarining mavjudligi, qarorlar qabul qilish hamda ijtimoiy-madaniy tadbirlarga jalb qilish).

2017-yildan beri BMT turli ijtimoiy-demografik guruhlar aholisini uy xo'jaliklari turlari, jumladan, keksalar bo'yicha taqsimlash yuzasidan interaktiv ma'lumotlar bazasini (**"Living Arrangements Interactive Data"**) yaratdi.

Shuningdek, milliy darajada qariyalarning farovonligini baholashga doir yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, bu murakkab baholash shkalalari va umuman, milliy indekslarning paydo bo'lishi, ayniqsa, qariyalar turmush farovonligining har tomonlama statistikasini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. Ushbu sohalar, asosan, postindustrial mamlakatlarda ko'proq kuzatilmoqda. Jumladan,

AQSH – keksa amerikaliklar: farovonlikning asosiy ko'rsatkichlari (**Older Americans: Key Indicators of Well-being**) – baholash keksa aholi farovonligini kuzatish maqsadida milliy statistikaning 37 ta obyektiv ko'rsatkichlariga asoslanadi⁸.

Avstraliya – 11 ta subyektiv ko'rsatkichga ega yuqori darajadagi his-tuyg'ular indeksi (**Senior Sentiment Index**)⁹; Avstraliya farovonligining lateral iqtisodiyot indeksi (**The Herald/Age – Lateral Economics Index of Australia's Wellbeing**) 13 ta obyektiv va 3 subyektiv ko'rsatkichlarga asoslanadi¹⁰;

Kanada – Kanadaliklarning farovonlik indeksi (**Canadian Index of Well-being**) (57 ta obyektiv va 7 subyektiv ko'rsatkichlar)ga asoslanadi¹¹;

Buyuk Britaniya – Milliy farovonlik choralari (**National Well-being Measures**) (22 ta obyektiv va 19 ta subyektiv ko'rsatkichlar)ga asoslanadi¹².

Avstraliya – 11 ta subyektiv ko'rsatkichga ega yuqori darajadagi his-tuyg'ular indeksi (Senior Sentiment Index); Avstraliya farovonligining lateral iqtisodiyot indeksi (The Herald/Age – Lateral Economics Index of Australia's Wellbeing) 13 ta obyektiv va 3 subyektiv ko'rsatkichlarga asoslanadi;

⁸ Older Americans 2012: Key Indicators of Well-Being. Federal Interagency Forum on Aging-Related Statistics. Washington, DC: U.S. Government Printing Office, 2012. URL: <http://www.aarp.org/content/dam/aarp/livable-communities/learn/demographics/older-americans-2012-key-indicators-of-well-beingaarp.pdf> (дата обращения: 29.11.2015).

⁹ 2nd Seniors Sentiment Index. National Seniors Australia, 2014. URL: <https://www.nationalseniors.com.au/sites/default/files/140213-NationalSeniorsAustralia-Challenger-SeniorsSentimentIndex2.pdf> (дата обращения: 07.04.2016).

¹⁰ Lancy A., Gruen N. Constructing the Herald/Age – Lateral Economics Index of Australia's Well-being // The Australian Economic Review. – 2013. – V. 46. – № 1. – P. 92–102.

¹¹ Canadian Index of Wellbeing. How Are Canadians Really Doing? / The 2012 CIW Report. – Waterloo, ON: Canadian Index of Wellbeing and University of Waterloo, 2012. URL: <https://uwaterloo.ca/canadianindex-wellbeing/> (дата обращения: 02.12.2015).

¹² Self A., Thomas J., Randall C. Measuring National Well-being: Life in the UK / Office for National Statistics, 2012. URL: http://www.ons.gov.uk/ons/dcp171766_287415.pdf (дата обращения: 07.03.2016).

Ma'lumotlarga ko'ra, 1991–2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining qarish indeksi 6,1 punktga ko'paygan. O'zbekiston aholisining keksayish darajasini baholasak, fransuz demograflari tasnifi bo'yicha mamlakatda 60 yoshdagi va undan yuqori yoshdagilar aholining 7,1% ini tashkil etadi hamda respublika aholisi demografik nuqtayi nazardan yosh hisoblanadi.

O'zbekistonda ham bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi: tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari keskin kamaydi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi uzaydi. Buning natijasida aholining **"keksayishi"** jarayoni tezlashmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 1991–2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining qarish indeksi 6,1 punktga ko'paygan. O'zbekiston aholisining keksayish darajasini baholasak, fransuz demograflari tasnifi bo'yicha mamlakatda 60 yoshdagi va undan yuqori yoshdagilar aholining 7,1% ini tashkil etadi hamda respublika aholisi demografik nuqtayi nazardan yosh hisoblanadi. BMT demograflari tasnifi bo'yicha esa 65 yosh va undan yuqori yoshdagilar respublika aholisining 4,5% ini tashkil etadi va bu demografik qarish bo'sag'asi tasnifiga mos tushadi.

Afsuski, bizning mamlakatimiz yuqorida keltirilib o'tilgan indekslarda ishtirok etmaydi.

BMT ekspertlarining prognozlariga muvofiq, 2050-yilga borib dunyoda eng yuqori qarish darajasi 72,7% ga yetishi taxmin qilinmoqda. Aholining keksayishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi hamda bu jarayon quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi:

- keksalar ulushining ortishi aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi. Odamning yoshi qancha katta bo'lsa, mahsuldorligi shunchalik past bo'ladi;

- aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlar ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasb-malaka va tarmoq tarkibining o'zgarish jarayoni, binobarin, iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi;

- pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi, zero, pensionerlar ulushining ko'payishi bilan bir yo'la pensiya jamg'armalariga mablag' to'lab boradigan mehnatga layoqatli aholi salmog'i qisqaradi;

- keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, gerontologik muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;

- hali ishlashni istaydigan "yosh qariyalar"ni ish bilan ta'minlash lozim. Bu oson vazifa emas, chunki pensiya yoshiga yetmaganlarga ham ish o'rinlari yetishmaydi;

- aholining keksayishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aholi bu guruhning talab

va ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ba'zi texnologik operatsiyalarni ham o'zgartirish, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish kerak. Transport vositalari ham keksalar talabiga monand bo'lishi lozim.

Xulosa takliflar. Demografik qarish bo'yicha samarali siyosatni ishlab chiqish uchun jinsi, yoshi va yashash joyi bo'yicha ajratilgan iqtisodiy, demografik va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Keksalarning ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashni yaxshiroq tushunish uchun ishonchli jins bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni taqdim etishni yaxshilash kerak:

- qarishning gender jihatlarini;
 - oila tarkibi va oilani qo'llab-quvvatlash tizimlarining o'zgarishi;
 - keksalarning oila, jamiyat hayotiga qo'shgan hissasi;
 - keksa odamlarning qashshoqlik darajasi;
 - asosiy ijtimoiy va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari;
- urbanizatsiya va migratsiyaning keksa odamlarga ta'siri;
- favqulodda vaziyatlarda keksalarning ahvoli va boshqalar.

Kambag'allik nafaqat daromad va xarajatlar bilan, balki boshqa ko'rsatkichlar (sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanish cheklangani, suv ta'minoti, sanitariya sharoitlarining yo'qligi) bilan ham o'lchanishini hisobga olsak, bu barcha parametrlar uchun ko'rsatkichlar zarur. Bu keksalarni oziqlantirish, suv ta'minoti, dori-darmon bilan ta'minlash, keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish, oziq-ovqat subsidiyalari bo'yicha qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

Shuningdek,

1. Mamlakat miqyosida barcha yetakchi mutaxassislar orasidan ekspertlar hamjamiyati ishtirokida **“Faol uzoq umr ko'rish indeksi”**ni joriy etish bo'yicha yondashuvlarni ishlab chiqish.

2. O'zbekiston keksaygan aholisining jinsi va subyektlari bo'yicha **“Faol uzoq umr ko'rish indeksi”**ni hisoblash algoritmlarini shakllantirish.

3. O'zbekistonda keksa avlod fuqarolarining 2030-yilgacha bo'lgan faol uzoq umr ko'rish konsepsiyasini yaratish, tasdiqlash hamda **“Faol uzoq umr ko'rish indeksi”** hisobini joriy etish.

4. Zamonaviy axborot ehtiyojlari va qarish sohasidagi xalqaro tavsiyalarga muvofiqqligini ta'minlash uchun davlat statistika kuzatuvlari tizimini takomillashtirish.

Kambag'allik nafaqat daromad va xarajatlar bilan, balki boshqa ko'rsatkichlar (sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanish cheklangani, suv ta'minoti, sanitariya sharoitlarining yo'qligi) bilan ham o'lchanishini hisobga olsak, bu barcha parametrlar uchun ko'rsatkichlar zarur. Bu keksalarni oziqlantirish, suv ta'minoti, dori-darmon bilan ta'minlash, keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish, oziq-ovqat subsidiyalari bo'yicha qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

*faol uzoq umr
ko'rish mavzusini
ishlab chiqish,
shuningdek,
respublika,
viloyat, an'anaviy
va onlayn
ommaviy axborot
vositalarida
keksa yoshdagi
hayot sifatini
yaxshilashga
qaratilgan vazifalar
hamda tadbirlarni
aks ettirish, keksa
avlod fuqarolari
to'g'risida turli xil
ijtimoiy reklama
yaratish;*

Bundan tashqari:

– keksa avlod fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ish bilan ta'minlash va mehnat munosabatlari, qo'shimcha ta'lim, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, keksa avlod fuqarolariga sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida qonunchilikni takomillashtirish, keksa avlod fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta'minlash;

– faol uzoq umr ko'rish mavzusini, shuningdek, keksa yoshdagi hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan vazifalar va tadbirlarni, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishning respublika, viloyat va shahar dasturlariga kiritish;

– faol uzoq umr ko'rish mavzusini ishlab chiqish, shuningdek, respublika, viloyat, an'anaviy va onlayn ommaviy axborot vositalarida keksa yoshdagi hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan vazifalar hamda tadbirlarni aks ettirish, keksa avlod fuqarolari to'g'risida turli xil ijtimoiy reklama yaratish;

– tegishli vazirliklar, idoralar va muassasalarning idoralararo o'zaro hamkorligi, vazirliklar va idoralar olimlari, amaliyotchilari hamda mutaxassislarining faol qarish sohasidagi siyosat va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish, monitoring qilishda hamkorligi; maqsadli ko'rsatkichlarni kuzatish, keksa avlodning hayot sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

– faol qarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalda qo'llash sohasidagi siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish uchun dalillar bazasini kengaytirish;

– atrof-muhit omillari va mavjud profilaktika choralari (sog'lom turmush tarzi, ovqatlanish, aqliy va jismoniy faollik va boshqalar) ta'siriga 55 yoshdan oshgan insonlar organizmining fiziologik reaksiyalarining xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan milliy tadqiqotlar o'tkazish;

– Keksav avlodning hayot sifati, keksav avlod fuqarolariga nisbatan ijtimoiy siyosat va jamiyatning demografik o'zgarishlarga moslashuvi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

– keksav avlodning hayot sifatini va faol uzoq umr ko'rish imkoniyatlarini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish; keksav yoshdagi fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash bo'yicha dasturlar va tadbirlarni axborot hamda reklama bilan ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ageing in the twenty-first century: a celebration and a challenge*. NY: UNFPA, 2012. – 192 p.
2. *Практическая демография: учеб. пособие для вузов / под ред. Л.Л.Рыбаковского*. – Москва: ЦСП 2005. – 280 с.
3. Доклад ООН о развитии в условиях старения населения мира. – 2007. Режим доступа: <https://www.un.org/ru/development/surveys/docs/wess2007.pdf>
4. *Active Ageing Index*. NY: UNECE Statistics Wikis. Mode of access: <http://www1.unece.org/stat/platform/display/AAI/Active+Ageing+Index+Home> (Date of access: 25.05.2016.)
5. *Older Americans 2012: Key Indicators of Well-Being*. Federal Interagency Forum on Aging-Related Statistics. Washington, DC: U.S. Government Printing Office, 2012.
6. URL: <http://www.aarp.org/content/dam/aarp/livable-communities/learn/demographics/older-americans-2012-key-indicators-of-well-beingaarp.pdf> (дата обращения: 29.11.2015). *2nd Seniors Sentiment Index*. National Seniors Australia, 2014. URL: <https://www.nationalseniors.com.au/sites/default/files/140213-NationalSeniorsAustralia-Challenger-SeniorsSentimentIndex2.pdf> (дата обращения: 07.04.2016).
7. Lancy A., Gruen N. *Constructing the Herald/Age – Lateral Economics Index of Australia's Wellbeing* // *The Australian Economic Review*. – 2013. – V. 46. – № 1. – P. 92–102.
8. *Canadian Index of Wellbeing. How Are Canadians Really Doing? / The 2012 CIW Report*. – Waterloo, ON: Canadian Index of Wellbeing and University of Waterloo, 2012. – URL: <https://uwaterloo.ca/canadianindex-wellbeing> (дата обращения: 02.12.2015).
9. Self A., Thomas J., Randall C. *Measuring National Well-being: Life in the UK / Office for National Statistics*, 2012. URL: http://www.ons.gov.uk/ons/dcp171766_287415.pdf (дата обращения: 07.03.2016).
10. https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.65UP.TO.ZS?end=2020&most_recent_value_desc=true&start=1960&view=chart&year=2020
11. <https://ru.sputnik.kg/20190421/na-zemle-detej-stanovitsya-menshe-chem-starikov-chto-proiskhodit-1044041462.html>
12. <https://ourworldindata.org/age-structure>
13. <https://ourworldindata.org/age-structure>